



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

## TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH: OILA VA JAMIYAT INTEGRATSIYASI ASOSIDA

**Bayjonov Furqat Baxramovich**

*Oriental universiteti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu ilmiy maqolada oila va ta'lim muassasalarida erkak va ayollarni gender farqlari va o'xshashliklar ko'rsatib o'tilgan. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga oila va ta'lim muassasalarida gender munosabatlarni barqarorlashtirishga e'tibor qaratilgan. Yoshlarning kelajak hayot ya'ni oila qurishdan oldin zarur bilimlarga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Gender tenglikni ta'minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, o'zaro bir birini tushunish tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash mazkur tamoyillarning mohiyati ochib berilgan. Dunyoda yoshlarni tarbiyalash, ularning ijtimoiylashuvini barqaror rivojlanish muhitida ta'minlash bo'yicha xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.*

### **Kalit so'zlar:**

*gender, gender madaniyat, stereotip, huquq, gender farqlar, shaxs.*

### **Аннотация.**

*В данной научной статье рассматриваются гендерные различия и сходства между мужчинами и женщинами в семье и образовательных учреждениях. Это, в свою очередь, способствует повышению эффективности учебного процесса. Вместе с тем уделяется внимание стабилизации гендерных отношений в семье и образовательных учреждениях. Подчеркивается необходимость формирования у молодежи необходимых знаний до вступления в семейную жизнь. В обеспечении гендерного равенства важную роль играют принципы законности, демократии, открытости и прозрачности, равноправия женщин и мужчин, недопущения дискриминации по признаку пола, а также взаимопонимания. Раскрыта сущность этих принципов, направленных на обеспечение равенства женщин и мужчин независимо от их расы, национальности, языка, религии, социального происхождения, убеждений, личного и общественного статуса. В мире ведутся международные научные исследования, направленные на воспитание молодежи и обеспечение их социализации в условиях устойчивого развития.*

### **Ключевые слова:**

*гендер, гендерная культура, стереотип, право, гендерные различия, личность.*

### **Abstract.**

*This scientific article shows gender differences and similarities between men and women in family and educational institutions. This, in turn, helps ensure the effectiveness of the educational process. At the same time, attention is focused on stabilizing gender relations in the family and educational institutions. It was emphasized that young people should have the necessary knowledge before starting a family. The principles of legality, democracy, openness and transparency, equal rights of women and men, non-discrimination on the basis of gender, and mutual understanding play an important role in ensuring gender equality. The essence of these principles to ensure the equality of women and men, regardless of race, nationality, language, religion, social origin, faith, personal and social status, has been revealed.*

### **Keywords:**

*gender, gender culture, stereotype, rights, gender differences, person.*

Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Jamiyatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar

o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Bolonya jarayonining Ijtimoiy o'lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta'limining (European Higher Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta'limga mazkur sifat tavsifi berilgan.

Berlin kommyunikasida (2003 y.) milliy va Yevropa darajalarida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy va gender tengsizlikni qisqartirish maqsadida ta'lim raqobatbardoshligini Bugungi kunda Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahonda oilalardagi ijtimoiy-pedagogik muhitni yaxshilash, oilalarni faravonlik darajasini oshirishda gender madaniyatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Oilada, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarda gender madaniyatini shakllantirish, uning ustuvor yo'nalishlarini ommalashtirishga doir islohotlar, innovatsion hamda xalqaro tajribalar almashilmoqda. Turli millat oilalarida gender xususiyatlar, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar va erkaklarning tengligi haqida keng ma'lumot ulashadigan mediamakon tizimi yaratilgan. Jinslararo tenglikka erishish, ta'lim va ijtimoiy institutlarning faoliyatidagi o'zaro aloqadorlik gender madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish hamda mazkur yo'nalishda media muhitni yaratish hamda pedagoglarning individual innovatsion faoliyatini shakllantirishga mo'ljallangan mexanizmni yaratish dolzablashmoqda. Yevropa Ittifoqining gender tengligi strategiyasi fon der Leyen komissiyasining Tenglik ittifoqiga erishish majburiyatini ta'minlaydi.

Gender tengligi nafaqat ayollar va erkaklarning roli, vazifalari va ehtiyojlari, balki ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan hamohangdir.

Gender tengligi bu ayollar va erkaklar uchun adolatli bo'lish jarayonidir. Gender tengligi ayollar va erkaklar tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy resurslar, imkoniyatlar, shart-sharoitlar, qobiliyat va salohiyatdan bir xil foydalanishni talab qiladi. Bu borada jinslar o'rtasidagi tengsizlik mavjud bo'lgan taqdirda, odatda ayollar manfaatlari cheklanadi. Shu bois, gender tengligini ta'minlashning muhim xususiyati – bu kuchlarning mutanosibligini ta'minlash, ya'ni, erkaklarga ham ayollarga ham o'z hayotlarini boshqarish, qobiliyat va salohiyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishda shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

Gender tengligi erkaklar va ayollarning jinsiy jihatdan bir xil vakolatli bo'lishini anglatmaydi. Erkaklar va ayollarning biologik jinsiy rollari mavjud bo'lib, bu jarayonda tengsizlik bo'lishi tabiiy holdir. Ushbu biologik tengsizlik ayollarning o'z salohiyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to'liq safarbar qilishlari, har ikkala jins uchun beriladigan imkoniyatlarga salbiy ta'sir etmasligi lozim.

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon ayollarning aqliy salohiyati va qobiliyat resurslari, imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanib kelinmagan. Ular jamiyatda faol bo'lishda, o'z taqdirini o'zi belgilashda kam vakolatga ega bo'lganlar. Albatta bunday tengsizlik har bir oilaning mustahkamligi, jamiyatning taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Agar ayollarga o'z salohiyatlarini to'liq ishga solish taqiqlansa, bu har bir oilaning, jamiyatning taraqqiyotini ellik foyizga cheklash demakdir. Bu esa oilani ham jamiyatni ham tanazzulga olib kelishi tabiiydir. Shu bois, erkaklar va ayollarning salohiyatlari, imkoniyatlaridan oilani va jamiyatni taraqqiy

ettirishda teng foydalanish, ular uchun bir xil shart-sharoit yaratish gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Takomillashtirilgan dasturlarda o'g'il va qiz bolalar tengligi, o'quv materiallarining gender tenglik va farqlar asosida belgilab berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'lim jarayoni yangi o'quv vositalari – metodik materiallar va didaktik ishlanmalar yaratishni talab qiladi. O'z navbatida, o'quv-metodik materiallar, nazorat vositalari bilan bog'liq ravishda tanlanishi lozim. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mana shunday o'zgarishlar barcha jabhalarda bo'lgani singari ta'lim-tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmogda.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda ta'lim jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

Zero, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki ta'lim jarayonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi".

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta'limda gender masalalari kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Pedagog olimlar O.Musurmonova, N.Egamberdiyeva, R.Samarov, U.Temirovalar tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari gender yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik ta'limda gender yondashuv masalalari o'rganilgan. Olimlarning fikricha, o'qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o'qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Gender yondashuv – gender tengsizligining mavjudligini va ularning sabablari, oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta'minlash to'g'risidagi yondashuv. Gender yondashuv erkak va ayollar o'rtasidagi gender munosabatlaridagi o'zgarish bo'lib, erkaklar va ayollar uchun foydali ta'sir ko'rsatadigan vakolatlar va majburiyatlarni yanada teng taqsimlashga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv esa – ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini belgilashda, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda gender masalalarini bevosita jalb qilishni o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy (ta'lim mazmuni) va metodik (o'qitish metodlari, o'quv jarayonini

tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarini, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta'lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta'sirchanligini oshirishni ko'zda tutadi.

Ta'lim ijtimoiy munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim o'g'il va qizlarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayol va erkaklarga davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xayotida ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda demokratik davlatning rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi.

Ta'lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag'rikenglik g'oyalari shakllanadi. Ko'pincha ta'limdagi gender tengligi to'g'risidagi bahslar gender paritetini muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma'lumot olishi uchun o'qishga kirish imkoni berilgan bo'lsa, demak ta'limdagi gender tenglik ta'minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta'limda gender tengligini ta'minlash – bu gender prioritetni ta'minlashdan ham kengroq bo'lgan konsepsiyadir.

**Muhokama va natija.** Davlat va jamiyatning ayol va erkaklar uchun o'z salohiyat va imkoniyatlarini namoyon etishlarida bir xil shart-sharoit, bir xil imkoniyatlar yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda muhim poydevor hisoblanadi.

S.D. Matyushkova[1] o'z chiqishlarida gender masalalariga doir quyidagicha yo'nalishlarni tavsiya qiladi:

– ma'lum jamoalar xatti-harakatlarini jinsi, yoshi, yashash joyi (qishloq / shahar) va boshqalar bo'yicha o'rganadigan gender sotsiologiyasi;

– inson huquqlari, jinsi, yoshi, etnik yoki diniy mansubligi, e'tiqodi, yashash joyi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi, genderni asoslangan zo'ravonlikning hamma ko'rinishlarini (jinsiy, ruhiy, iqtisodiy va h.k.) birlashtirgan ayollarga nisbatan zo'ravonlik;

– ayollar va erkaklar uchun reproduktiv salomatlik va reproduktiv xulq-atvorni erkin tanlash huquqi masalalarini hal qiladigan oilani rejalashtirish va reproduktiv huquqlar;

– ayollarning oila rivojiga qo'shgan mehnat hissasini e'tirof etish, shuningdek, bolalarni tarbiyalashda erkaklar ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarini topish uchun zarur bo'lgan pullik va to'lanmaydigan ishlarni erkaklar va ayollar o'rtasida taqsimlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan ish bilan ta'minlash; oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish va hk.;

– ta'lim, aholini qamrab olish darajasi, jinsga qarab, aholi uchun ta'lim darajasining sabablari va oqibatlari;

– gender stereotiplarini yo'q qilish, ayol va erkaklar jinsiga qarab kamsitilmasdan tasvirlashning axloqiy me'yorlarini ishlab chiqish uchun juda muhim bo'lgan ommaviy axborot vositalari tarmog'ida gender tadqiqotlari;

– muayyan tarixiy eralarda va har xil o'lkalarda ayol va erkaklar mavqeining farqini aniqlashga imkon beradigan, gender sezgirligini kuchaytirish uchun adabiyot va san'atdan ma'naviy-axloqiy ta'sir vositasi sifatida foydalanish;

– gender natijalari bilan hisoblashgan holda jami ko'rsatkichlarni namoyon etuvchi gender statistikasi, bu umumiy yutuqlarni emas, balki milliy tovarlarni va xizmatlarni jamoat a'zolari o'rtasida taqsimlashda haqiqatning darajasini ko'rsatadi.

– gender analizi, aholi talablarini aniqlash, yechimlarni topish va monitoring faoliyati. Bu yerda ayollarning ham, erkaklarning ham fikri bir xil darajada e'tiborga olinadi [1].

Jinslararo gender tenglikni ta'minlashning asosiy jihatlarini mavjud bo'lib, ularni qo'yidagicha tasnif etish mumkin:

– ota-onalarning dunyoga kelishni kutayotgan farzandlariga nisbatan bir xil munosabatda bo'lish. Ba'zan oilalarda o'g'il farzand kutilayotgan bo'lsa uni sog'lom dunyoga kelishi uchun barcha shart-sharoit yaratiladi, olam-olam orzu-istaklar bilan bayramona kutiladi. O'g'ilni dunyoga keltirgan onaga nisbatan ham alohida e'tibor beriladi. Agar qiz bola bo'lsa uning aksi bo'lishi mumkin. Gender tinglikda har ikkala jinsning dunyoga kelishiga nisbatan bir xil munosabat bo'lishi lozim.

– dunyoga kelgan o'g'il yoki qiz tarbiyasiga jinslarga xos strategik munosabat. Farzand dunyoga kelgach jinsiga qarab tarbiyalanib boradi. Qizlarni bo'lajak ona bo'lish, erini va uning oilasini hurmat qilish, bolalariga va oilasiga hayotini bag'ishlash, ro'zg'or yumushlarini bajarish rollariga tayyorlaydilar. Qizlarning o'z-o'zini namoyon etish holatlari o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq darajada cheklab qo'yiladi. Ayollarning hulq-atvori to'g'risidagi bilimlarni qizlar odatda onalaridan oladilar. Oilaning har qanday a'zosi mavjud qoidalarni o'zgartirishga harakat qilsa, bu narsa tushunmovchiliklarga va noxushliklar, eng yomoni oilaning boshqa a'zolari tomonidan nizolarga olib kelishi mumkin.

– har ikkala jins farzandlar rivojlanishi uchun bir xil sharoit va imkoniyat yaratish;

– ta'lim olish, mehnat taqsimoti, kasb egallash, dam olish, oilaviy munosabatlarda qaror qabul qilishda teng imkoniyatlar berish;

– reproduktiv va jinsiy sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda bir xil yondoshish. Bu ularga o'zlarining reproduktiv va jinsiy sog'lig'ini saqlash uchun qarorlar qabul qilish va choralar ko'rishga imkon beradi.

– ayol va erkakning yutuqlari, orzu-istaklarini yagona maqsad sari birlashtirish.

Insoniyatning rivojlanish tarixi shundan dalolat beradiki, erkakda ham ayolda ham o'zi ishongan aqidalarga rioya qilish xususiyati kuchli bo'ladi. Ayollarga bo'lgan munosabat esa inson huquqlarining bir bo'lagi sifatida turli mintaqalarda, turli tuzumlarda, milliy madaniyatda, turli diniy ta'limotlarda va urf-odatlarda turlicha ya'ni, ba'zan bir-biriga zid, ba'zan esa juda o'xshash ko'rinishlarda namoyon bo'ladi[3].

Shuning uchun gender tenglikning ta'minlanishi har bir davlatning, millatning urf-odatlarini, diniy qarashlari va aqidalarga ham bog'liq.

Shu nuqtai nazardan, ayol huquqlari insonlarning ijtimoiy hayoti, jamiyatdagi munosabatlar, shaxsning hayot tarzi bilan bog'liq muammo bo'lib, har bir jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabat insonlarning o'zaro munosabatlari, xulq atvori, urf-odatlarini, diniy aqidalari, mustahkam o'rnashib qolgan qarashlari va ma'naviyati bilan belgilanadi[4].

L.P.Shustova, E.Kagan, A.V.Mudrik, S.P.Rikov, L.I.Stolyarchuk, J.B.Shtileva va boshqalarning asarlarida shaxsning gender umumiyligiga jihatidan diqqatga sazovori ta'limdagi gender yondashuvlarini rivojlantirish muammosi, degan yakunga kelishdi, uning maqsadi shaxsga nisbatan an'anaviy cheklovlarni yo'q qilish, jinsga qarab rivojlanish, maksimal darajada o'zini anglash va qobiliyatlarini ochib berish uchun sharoit yaratishdir.

Zamonaviy ijtimoiy fan gender (jins) va jins tushunchalarini ajratib turadi (inglizcha gender, lotincha "jins", "tur", "sinf"). Gender tushunchasi odamlarning anatomik va fiziologik xususiyatlarini belgilashda ishlatiladi, shu asosda inson erkak yoki ayol deb ta'riflanadi. Ikkinchi konsepsiya – genderni asoslangan madaniy komponent.

Inglizcha "gender" so'zi ijtimoiy jinsni, jamiyat va oiladagi ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarni bildiradi[1].

Yana bir masala shuki, D.N.Isayev va V.E. Kagan, xususan: “O’g’il bolalarga bo’lg’usi erkak sifatida qo’yiladigan talablar qizlarning kelgusidagi ona/ayoligiga ko’ra murakkabroq va gender sotsializatsiya chog’ida o’g’il bolalar ko’pincha ekologik bosimni boshdan kechirishadi”. V. E.Kagan buni rivojlanish va tarbiyaning gender-rol xususiyatlari bilan bog’laydi, “chunki “qizlarga nisbatan “o’qish lozim” degan bosim kamroq, kattalar ularning axloqi va olgan baholari xususiyatlarini qabul qilish doirasi kengroq; noto’g’ri tuzatishning subyektiv komponenti va uning xulq-atvori namoyon bo’lishi odatda o’g’il bolalarnikiga qaraganda ancha samimiy bo’lib, boshqa faoliyat turlari va qiymat yo’nalishlarini hisobga olgan holda osonroq amalga oshiriladi; ayollar – ko’pincha yoki yanada tez-tez – o’qituvchilar jamoasi qizlar uchun o’g’il bolalarga qaraganda yaxshi sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy gender (jins) butun hayoti davomida tarbiyalanadi, shu davrda odam o’zini erkak yoki ayol sifatida tavsiflovchi xulq-atvor me’yorlarini egallaydi. Bu xulq-atvor xususiyatlari yoki gender rollari erkaklar va ayollarga tarbiya, kiyim-kechak, xarakter, muayyan faoliyat bilan shug’ullanish bo’yicha tavsiya, turli psixologik fazilatlarini shakllantirish, turli yo’nalishlarda ko’nikmalarni rivojlantirish orqali singdiriladi.

Ma’lumki, jamiyatdagi o’g’il va qiz bolalar uchun ta’lim tizimi anchayin farq qiladi. Qizlarni onalari va buvilari tarbiyalaydilar, erta uy ishlariga jalb qiladilar, itoatkorlikka, bo’ysunuvchanlikka, kattalar va erkaklarga qarshi bormaslikka o’rgatadilar. Shunday qilib, erta bolalikdan qizlar itoatkorlik ruhida tarbiyalanadi va o’z fikrlarini bildirish huquqlari birmuncha cheklangan bo’ladi (Norkulov. H, 2023).

O’g’il bolalar qattiqqo’llik bilan tarbiyalanadilar, aslida ular ota-onalarining hayotini kuzatib, o’z oilalarida mavjud bo’lgan urf-odat va turmush tarziga ko’ra boshliq, boquvchi va hakam rovida o’zlarini oilaviy hayotga tayyorlab, o’sib, o’rganadilar.

O’zaro munosabatlar madaniyatining mazmuniy tarkibiy qismiga xulq-atvor o’lchovlari bilan qiyoslaganda o’zlashtirilgan qadriyatlarini ma’nan qayta ishlash kiradi. O’quvchi qiz va o’g’il bolalarni baholash me’yorlari va mezonlari vositasida gender madaniyatini nazarda tutib muomala madaniyati yetiladi. Mazmuniy tarkibiy qism baholash vazifasini o’taydi, bu bolaning o’zini tutish o’lchovlariga, o’zi va o’zgalarga ichki munosabatini ko’rsatishga tayyorligini belgilaydi, bu tevarakdagi hodisalarga yetarlicha javob berishga, tashqi alomatlarini taqqoslashga yordam beradi. Bu esa o’z g’oyalari va uni hal qilish imkoniyatlariga daxldor holatlarda yuzaga chiqadi[2].

O’rnatilgan stereotiplar natijasida gender bo’yicha mehnat taqsimoti paydo bo’ladi: erkaklar obro’li va yuqori maoshli lavozimlarni egallaydilar, ayollar esa uy ishlarini bajaradilar yoki kam haq to’lanadigan ishlarda ishlashadi. Jamiyat “ayollar kasbi” yoki ishi bilan shug’ullanadigan (bolalarni tarbiyalash, uyda farovonlik yaratish va boshqalar) erkaklarga yomon munosabatda bo’ladi. Nega? Chunki erkak o’z hayotining asosiy maqsadi ish va martaba, ayollarning namoyon bo’lish doirasi esa uy va oila, ya’ni xulq-atvor me’yorlari, gender mafkurasi tomonidan belgilangan gender rollari mavjud bo’lib, mavjud taqsimotni oqlaydi.

Gender deganda nafaqat ayollar yoki erkaklar, balki ular o’rtasidagi munosabatlar, ushbu munosabatlarning ijtimoiy-madaniy shakllanish uslubi tushuniladi. “Gender” - bu o’zaro munosabatlarni o’z ichiga olgan tushuncha bo’lgani uchun, mazkur atama ham ayollarga, ham erkaklarga tegishli bo’lishi kerak. Erkak va ayollar o’z jamiyatlarining madaniy mahsulotidir, chunki ularning ma’lum bir jinsga mansubligi bilan butun hayoti davomida tarbiyalanadi. Ushbu rollar vaqt o’tishi bilan jamiyatning madaniy va ijtimoiy sharoitlariga qarab o’zgarib turadi[2].

O'qituvchining vazifasi – bu fikrlarning nisbiyligiga, biologik xususiyatlarning o'zgarishligiga va tug'ish tabiat tomonidan berilganligiga, gender xususiyatlari esa jamiyatda qabul qilingan tarbiya va odatlar, stereotiplar natijasida paydo bo'lishiga qaratilgan. O'qituvchi "Biz erkak va ayol haqida gapirganda biologik jinsni nazarda tutamiz", deb tushuntiradi. Ammo "ayol" va "erkak" genderi haqida gapirganda, biz ijtimoiy xususiyatlarni nazarda tutamiz[6].

**Xulosa.** Zamonaviy pedagogik hamkorlik sharoitida ancha uzoq yillarda qolgan gender qo'llarini buzish fursati yetdi. Ijtimoiy mavqe va maqomni aniqlash uchun talabalarning jinsi emas, balki ularning serharakatligi, tezkorligi, iqtidori, ijodkorligi, kengfikrliligi, mulohazakorligi, tavakkalchiligi, alohida va umumga xos xislatlari tamal vazifasini bajarishi lozim.

Mazkur maqolada oilada va ta'lim muassasalari gender madaniyatni takomillashtirish, harakatlarning yetakchi chizig'i androgin xususiyatlarini majburlash va o'qitish davrida o'zgarish gender-rol andozalarini yengillatishga yo'naltirilgan modelni ko'zda tutadi. Ta'lim muassasalari talabalarining jinsiy roli faoliyati bir yoki boshqa jinsga xos bo'lishi uchun modellashtirilishi kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish joizki, balog'at yoshidagi o'g'il va qizlarni kelajakdagi turmushga tayyorlab, oilaviy hayotni boshlash davri yaqinlashganda, har ikki jins vakillari mashaqqatlar bilan yuzlashadilar, buning oqibatida, genderni anglatuvchi vakolatli pedagoglar soni ortadi. Va nihoyat, ta'lim muassasasi talabasi shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qo'llarni bartaraf etish va shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning xulq-atvorining ijtimoiy maqbul modellarini shakllantirishni qamragan gender yondashuvidan foydalanish zarurati tug'iladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.Д.Матюшкова. (2008). Основы гендерной культуры (150th ed.). Программа спецкурса для старшеклассников. Минск.
2. С.Д.Матюшкова. (2012). Педагогические условия формирования гендерной культуры учащихся старших классов (167th ed.). Монография. Витебск.
3. В.Намазов, Н.Егамбердиева, М.Мирсолиева. (2018) O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O'quv qo'llanma. – Toshkent.
4. Эгамбердиева, Н., Камилова, Р., Атаниязова, Р., Исакова, Л., Усманова, М., Исломов, А. (2021). Гигиенические аспекты формирования устойчивой социальной среды в семье.
5. Jamoldinova, O. (2022). Ta'lim tizimida gender yondashuv tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O'zbek ILMIY-METODIK JURNAL, 1, 15-22.
6. Norkulov, H. (2023). O'smirlarni oilaga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari. Foreign Languages in Uzbekistan, 133-142.

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNINI VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI .....	4
<i>Azizova Dilzaxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNINI .....	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS .....	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ .....	28
<i>Qodirbekova Zehaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOZITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH .....	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI .....	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэвна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ .....	43
<i>Olinaova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI .....	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI .....	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI .....	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA .....	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH .....	66
<i>Raxmanov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI .....	70
<i>Bozorbayeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSIYON YONDASHUVLAR DRODALI TARBIIYACHILARNING KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH .....	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOJIR .....	81

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскароев Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ .....	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ .....	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI .....	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH .....	104
<i>Maksumova F.K</i> MADOMNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI .....	110
<i>Alisherova Zulfiya Talibdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI .....	114

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasay Muradjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS .....	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unbayeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrakhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN $R^n$ .....	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI .....	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL .....	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI .....	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Unaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI .....	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI .....	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	188